



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR



SHAFOAT TERMIZIY IJODIGA BIR NAZAR

Muxtorova Mahfuza Shavkatjon qizi

TerDU o'qituvchisi

Anotatsiya: Surxon vohasining dashtu dalalarida unib o'sgan, satrlari Bobotog'ning hurkak ohulari yanglig' beg'ubor, har bir qadamini iymanibgina qo'yadigan shoir Shafoat Rahmatullo Termiziy she'riyatidagi mavzuning ko'lami va tahlili haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z: "ko'rinnmay gullagan shoir", Termiziy bobolarning kenja vakili, she'riyat shodasining bir dona gavhari Termiziy, "Umid ostonasi", "Gulob", "Ozod so'z", "Ko'rinnmay gulladim", "Shoh va shoir".

Goh she'rlar o'qiyimiz o'nlab, yuzlab,
So'zlarning timsoli qo'yilgan qalab.

Aql teshasi-la titkilab barin,
Ichidan topmaymiz birorta sadaf

Shoir aytganiday, she'rlar juda ko'p, ularga har kuni har bir ijodkor duch keladi va uni o'zicha o'qib tahlil qiladi, qaysidir ma'noda ba'zilari o'qishga arzirli, ba'zilari esa yo'q. She'rda quvonch, dard, shoir tomonidan yaratilgan qumtosh bo'lishi kerak, uni o'qiyotgan haqiqiy ijodkor qancha titkilasa ham undan faqat sadaf topishi kerak. Bu shoir uchun ancha mas'uliyat talab qiladi. Ana shunday ijodning eng nozik qirrasini ko'ra bilgan shoir esa uni to'rtliklarda bayon qilgan.

Fikr yuritayotgan shoirimiz esa serqirra ijodkor, Surxon elining zabardast ijodkorlaridan biri, muxlislari tomonidan e'tirof etilgani kabi "ko'rinnmay gullagan shoir" Shafoat Rahmatullo Termiziydir. Ushbu ijodkorni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bir guruh ijodkor shoirlar va muxlislar davrasida shunday ta'riflaydi: "Agar she'riyatda katta bir shoda bo'lsa, Shafoat Rahmatullo Termiziy undagi bir dona gavhar" dir. Bu so'zlar bejizga aytilgan emas, chunki Shafoat Termiziy o'z hayoti va ijodini, iste'dodini hamda mahoratini Vatan nomi va buyukligi bilan bog'lab kelgan Termiziylar avlodining kenja vakilidir. Zero, vaqt o'tgan sayin ko'pchilik ijodkor va muxlislar haqiqatdan ham shoirni o'zbek she'riyatidagi bir dona gavhar deya tan olishdi.

Garchi xasdalan baland, qasddan pastdirman,
Do'stim, senga yondosh quvonch, g'amdirman .

Termiziy bobodan qolgan shamdirman,
Ming yil puflasang ham , aslo o'chmayman

Darhaqiqat, shoir she'riyatida allaqanday bashorat ham borday, chunki bunday ijodkorlar hech qachon unitilmaydi va unitishga yo'l qo'yilmaydi, o'zi aytganidek ming yil puflangiz ham muxlislar qalbida yonib turadigan Termiziy bobolardan qolgan mangu shamdir.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Sirtimga qarab siz chiqarmang hukm,
 Bilmasdan dilimda nimalar hokim.
 Davrada vaqt degan bir donishmand bor,
 U hali aytadi siz kimu men kim.

Shoir she’riyatiga nazar tashlagan hech bir ijodkor yo’qki, unga munosabat bildirmay o’tib ketadigan, hozirgi yosh ijodkor shoirlarimizdan biri Sirojiddin Ibrohim shoir haqida shunday deydi: “Dunyoda shoir ham, she’r ham ko’p ekan... Hali qog’ozining siyohi qurimay, boshi birikmagan to’rt satrni she’r deb yurganlar qancha... Surxon vohasining dashtu dalalarida unib o’sgan, satrlari Bobotog’ning hurkak ohulari yanglig’ beg’ubor, har bir qadamini iymanibgina qo’yadigan shoir Shafoat Rahmatullo Termiziyyidan bu borada saboq olsak arziydi.

She’riyatdan so’z ochsangiz, yosh bolalar kabi zavqlanib ketadigan shoirning teran satrlari hisobsiz qalblarni unsizgina zabit etgani bizga sir emas. U har bir so’zni yetti o’lchab bir kesadi:

Sohir qalb sohibi, Termiziy izi,
 Ezgulik nurlari yog‘ar yuzidan.
 Surxonda she’riyat sarboni o‘zi,
 Ko‘p o‘git uqasiz aytgan so‘zidan.
 Oddiylik xislatin etgandir odat,
 “Ko‘rinmay gullagan” shoir Shafoat.”

Shafoat Rahmatullaev she’riyatimizga o’tgan asrning 70 yilida kirib keldi. Ilk she’riy tuplami “Janub shamoli” bilan kitobxonlar nazariga tushdi. Shundan “Umid ostonasi”, “Gulob”, “Ozod so’z”, “Ko‘rinmay gulladim”, “Shoh va shoir” kitoblari nashr etildi.

Shoir she’riyatining mavzular ko’lami chiroylida keng va rang barang. U eng avvalo shu ona-Vatanning farzandi bo’lganligidan faxrlanadi. Shoir ona-yurt qiyofasini shunchaki narsa yo’q, balki moziyga murojaatga, kechagi va bugungi kuniga nazar tashlaydi. U Vatanning suvratini Shumerning loy xatida, Afrosiyob, Xolchayon bitiklarida, nilufar gumbazlarining osmonida qayerdadir. Shoirning bir she’rida butun bir tarixi bilan, katta odamlari bilan katta Vatan saqlab qoladi.

Dastur qilsa otalar Amir Temur tuzugin,
 Taqsa o’qil onalar To’marisning uzugini.
 Allomalar haq so’zga butlasa yurt buzgin,
 Yovqur bobolar ruhi bor bo’lsa yurakda
 Istiqlolu istiqbol Turon bo’lsa yurakda.

Bugungi kun adabiyoti haqida shoirning o’zi shunday degan edi: “....Adabiyot katta maydon, hamisha shunday bo‘lib kelgan. Bugun to‘qqiz yashardan to‘qson yashargacha kitob chiqarib yotibdi. “Ermas oson bu maydon ichra turmoq...” degan edilar ulug‘ bobomiz. Biz ham “Hayot rubob – hamma cholg‘uchi. Har kim o‘z kuyini chaladi. Kimning kuyi bir lahzalikdir. Kimning kuyi mangu qoladi” deb ming‘irlagandik bir vaqtlar. Bugungi adabiyotning yutug‘iyu qusuri xususida gapirishga ma’naviy huquqimiz ham yo‘q,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



quvvatimiz ham yetmaydi. Faqat vaqt hakam deya olamiz. O'zimizga qarata uni shunday ta'kidlaganmiz:

Sen o'chsang nima g'am, porlayveradi,
Yo'lchirog' haqiqat – poklik onasi.
Hammaga zol hukmim borlayveradi,
Temir qonun vaqtning qozixonasi!"

Shafoat Termiziy o'z hayoti va ijodini, iste'dodi hamda mahoratini Vatan adabiyotiga bag'ishlagan ijodkordir. Shafoat Termiziy - donishmand shoir. Shoir she'rlarining asosiy mavzusi Vatan haqida Vatanning shonli tarixini madh etiladi, Vatan haqidagi she'rlarida nafaqat ona yurtning tabiatni, balki shonli o'tmishi ham fahr bilan kuyga solinadi. Birgina "Surxondaryomsan" deb nomlangan she'rida yurtning tarixi, bobolarimiz nomi madh etilganini ko'rshimiz mumkin.

Tarixi ming bir kitoblik alp moziylar yurtisan,
Al-hakim, Sobirdek zako Termiziylar yurtisan.
Ra'noxonimdek qalami qirmiziylar yurtisan,
Ona o'lkam, baxti ko'rkm Surxondaryomsan o'zing

Moziyga nazar tashlasak, vohamizning ming yillik tarixi bor, Al-hakim, Sobir Termiziylar singari bobolari bor yurt ekanligiga hech shubha yo'q. Yurtimiz o'tmishini bezatadigan eng noyob durdonasi bo'lgan Ra'noxonimlari bor, mening yurtim shu buyuklarga allalar aytgan muqaddas go'sha ekanligini yana bir bor madh etmoqda .

Bobotog'ing har tong chiqar Quyoshning mehrobidur,
Bag'ringda qancha qo'rg'onlar kamoling ehromidur.
Dongli dostoningni xalqing, Rustam Suxrobidur
Ona o'lkam, baxti ko'rkm Surxondaryomsan o'zing

Shoir she'rda so'zni shunchalik ustalik bilan terganki, hattoki Bobotog'larni quyoshning mehrobi deya ta'kidlagan. Rustam-u Suxroblari bor bo'lgan alplarning go'sasi deya ta'riflagan.

Tonglaring shu'lalanar zar paxtangning tolasidan,
Saodating oydin sening surlaring jilosidan.
Baxting balqar xirmonlaring ko'k o'par tillosidan,
Ona o'lkam, baxti ko'rkm Surxondaryomsan o'zing

Surxon yurtining milliy boyligi bo'l mish Paxtanining jilosida tongning shu'lasini ko'rgan shoirning naqadar qalbida jo'sh urgan tug'yonlarni o'quvchi kitobxon u bilan birga his qilmay iloj yo'q.

Ardoqlagan makondirsan mehnatchilar mardini,
Fidoyilaring ko'ksida Vatanning Shuhrat ordeni.
Shafoat ayladi madhin sen yurti jo'mardini,
Ona o'lkam, baxti ko'rkm Surxondaryomsan o'zing

Xulosa sifatda shuni yaxshilash lozimki, Shafoat Termiziy o'zbek she'riyatining muazzam olamiga Termiziy bobolar ruhi bilan sug'orilgan mumtoz adabiyot g'oyalarini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yangicha to'qilgan holda olib kirdi. Alovida yo'nalish sifatida palak yozgan she'rlarida Vatan, yurtning bor surati-yu siyratini Termiziylar vakillaridan biri bo'lib, ham milliy, ham zamonaviy tarzda ijod olamiga baxshida etdi. Xullas, she'riyatimizga ilohiy ruh kirib keldi. Badiiy ongimiz olamlar ijodkorini bilish, tanish va tanitish sari yuz berdi. Shoir Shafoat Termiziy sharifilarning zamonaviy tilimizdagи tarovatini kuylagan, qolaversa, she'riyatimizdagи badiiy talqinini mohirona idrok eta bilgan so'z san'atkori bo'lib yuraklarda mangu qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shafoat Rahmatullo Termiziy. Ozod so'z . Toshkent, "Yangi asr avlodи". 2003
2. Shafoat Rahmatullo Termiziy. Ko'rinxay gulladim. T.: "Muharrir" nash. 2008.
3. N. Yo'ldoshev. Ozod so'z ichtirobi. "Termiz universiteti" gazetasi. 9-son.
4. www. kh-davron.uz

